O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA LIZING AMALIYOTINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI

Sadikov Zafarbek Adilbekovich
Andijon davlat texnika instituti, katta o'qitivchi
Xursanbekov Fayzullo Jaxongir o'g'li
Andijon davlat texnika instituti Bank ishi va audit yo'nalishi, 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida moliyalashtirish shakllari tobora xilma - xil bo'lib bormoqda. Lizing amaliyoti ana shunday zamonaviy moliyaviy vositalardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina tadqiqotchilar lizingni faqat kredit muqobili sifatida ko'rsatadi, biroq uning iqtisodiy tabiati ancha murakkab va ko'p qirrali ekani amaliyotda tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Kalit so'zlar. Lizing, kredit, kichik va o'rta biznes, bank, bank tizimi, moliyalashtirish, asosiy vositalar, risk boshqaruvi, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish. Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va investitsiya faolligini oshirish jarayonida moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, lizing amaliyotlari korxonalarni asosiy vositalar bilan ta'minlashning muqobil va samarali mexanizmi sifatida alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa, bank tizimi orqali amalga oshirilayotgan lizing xizmatlari ishlab chiqarishni kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston'da so'nggi yillarda moliya bozorini liberallashtirish, bank tizimini isloh qilish va investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa lizing xizmatlarining rivojlanishiga qulay sharoit yaratib, ularning turlari va hajmining oshishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, lizing amaliyotining iqtisodiy samaradorligini baholash, uning banklar faoliyatidagi o'rni va

ahamiyatini aniqlash dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mazkur tezisda O‘zbekiston bank tizimida lizing amaliyotining rivojlanish tendensiyalari, uning iqtisodiy samaradorligi hamda ushbu sohani yanada takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, lizing xizmatlarining afzalliklari, mavjud muammolari va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratiladi.

Asosiy qism. Lizing amaliyoti zamonaviy moliyaviy munosabatlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u asosiy vositalarni uzoq muddatli ijaraga berish orqali korxonalarni moliyalashtirishning samarali shakli hisoblanadi. O‘zbekiston bank tizimida lizing operatsiyalari asosan tijorat banklari va ixtisoslashgan lizing kompaniyalari tomonidan amalga oshirilib, real sektor korxonalarining texnik va texnologik yangilanishiga xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatda bank-moliya tizimini isloh qilish, investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar natijasida lizing xizmatlari bozori kengayib bormoqda. Xususan, kichik biznes subyektlari uchun imtiyozli shartlarda lizing xizmatlarining taqdim etilishi ularning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga yordam bermoqda. Banklar tomonidan qishloq xo‘jaligi texnikasi, sanoat uskunalari va transport vositalarini lizing asosida moliyalashtirish hajmi ortib bormoqda.

Lizing amaliyotining iqtisodiy samaradorligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, lizing orqali korxonalar katta miqdordagi bir martalik investitsiya xarajatlarisiz ishlab chiqarish vositalariga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, lizing to‘lovlarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi korxona pul oqimlarini muvozanatlashtirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, soliq imtiyozlari va amortizatsiya mexanizmlaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi lizingning jozibadorligini oshiradi.

Shu билан бирга, O‘zbekiston bank tizimida lizing amaliyotini rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, uzoq muddatli moliyaviy resurslarning cheklanganligi, ayrim hududlarda lizing xizmatlari bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda risklarni baholash mexanizmlarining takomillashtirilishi zarurati shular jumlasidandir.

Zamonaviy sharoitda lizing amaliyotini yanada rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish, masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimlarini kengaytirish hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. O‘zbekiston bank tizimida lizing amaliyotining rivojlanishi so‘nggi yillarda sezilarli darajada faollashib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini modernizatsiya qilishda muhim moliyaviy instrument sifatida namoyon bo‘lmoqda. Lizing xizmatlari orqali korxonalar asosiy vositalarni katta boshlang‘ich xarajatlarsiz jalb etish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Kelgusida lizing amaliyotining samaradorligini yanada oshirish uchun banklar tomonidan innovatsion moliyaviy xizmatlarni joriy etish, lizing bozorida raqobat muhitini kuchaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish va huquqiy bazani takomillashtirish lizing xizmatlarining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, lizing amaliyoti O‘zbekiston bank tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda va real sektorni qo‘llab-quvvatlashda yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2022.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. Jo‘rayev T.J. Bank ishi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. Abdurahmonov Q.X. Moliya bozori va moliyaviy xizmatlar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
6. Xolmatov N.B. Lizing operatsiyalari va ularning samaradorligi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki materiallari va rasmiy hisobotlari. – www.cbu.uz
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bank tizimini isloh qilishga oid farmon va qarorlari. – www.lex.uz
9. International Finance Corporation (IFC) reports on leasing development. – www.ifc.org
10. Statistika agentligi ma’lumotlari. – www.stat.uz